

<b>Fan platformasi</b>		
<b>Fanning to'liq nomi: Inson resurslarini boshqarish</b>		
<b>Fan kodi:</b> IRB4706	<b>Fanga ajratilgan kreditlar (ECTS):</b> 6	<b>davomiyligi:</b> 1 semestrlar
<b>Kafedra:</b> Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti		
<b>Fan qaysi yo'nalish talabalari uchun:</b> 60411200 Menejment (kimyo va oziq – ovqat sanoati)		
<b>Fan ma'ruza o'qituvchisi:</b> Aliyeva Janat Askarovna		
<b>Fanga ajratilgan umumiy soatlar:</b> 180 <b>Kurs ishiga ajratilgan umumiy soatlar:</b> -	<b>Email:</b> alievajanat747@gmail.com	
<b>Fan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari o'qituvchisi(lari):</b> Aliyeva Janat Askarovna		
<b>Prerekvizitlar:</b> menejment, marketing, statistika, iqtisodiyot nazariyasi		<b>Tanlov turi:</b> majburiy fan
<p><b>Fanning qisqacha bayoni:</b> inson resurslarini boshqarish asoslarini, korxonalarda xodimlarni boshqarish strategiyasi va taktikasining mohiyati, mazmuni va xususiyatlarini o'rgatish, yuqori malakali kadrlarni shakllantirish va xodimlarni boshqarishning mezonlari, o'lchovlari va ko'rsatkichlari bo'yicha nazariy bilimlarga ega bo'lish, xodimlarni professional tanlash, o'qitish, malakasini oshirish va lavozimlarga biriktirish va ko'tarish masalalarini o'rgatish, xodimlarni ishga qabul qilish va undan bo'shatish hamda xodimlarni boshqarishning huquqiy-me'riy asoslari bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish, inson resurslarini boshqarish bo'yicha ish yuritish asoslari va zaruriy hujjatlarni to'g'ri va tez rasmiylashtirish, xodimlarni boshqarish samaradorligini aniqlash va uni oshirish yo'llarini belgilash bo'yicha xulosa va tavsiyanomalar ishlab chiqishga o'rgatishdan iborat.</p>		

**Fanning maqsadi:** Talabalarda inson resurslarini boshqarish asoslarini amaliyotga qo'llay oladigan darajadagi bilim va ko'nikmalar hosil qilishdan iborat. U talabalarda korxonada, tashkilot va firmalarning tub maqsadiga erishishini ta'minlovchi inson resurslarini boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini shakllantirishdan iborat.

**Fan yakunida talabalar quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishadi:**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

➤ inson resurslarini boshqarishning huquqiy asoslari, inson resurslarini boshqarish konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishi, tashkilotning inson resurslariga bo'lgan ehtiyojini aniqlash, xodimlarni rag'batlantirish va motivatsiyalash usullari, ish joyida xodimlarni kasbiy moslashtirishning shakllanish tizimlari, tashkilotda inson resurslaridan foydalanishni tashkiliy boshqarish haqida **tasavvur va bilimga ega bo'lishi;**

➤ xodimlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va lavozimlarga biriktirish, inson resurslarini boshqarishning zamonaviy konsepsiyalarining asosiy tamoyillari, mehnat sohasida ijtimoiy sherikchilik mexanizmlari haqida **bilishi va ulardan foydalana olishi;**

➤ tashkilotda inson resurslaridan foydalanishni rejalashtirishni, inson resurslaridan samarali foydalanishni hisoblash va boshqarishni, inson resurslarini sifat jihatidan boshqarishni, xodimlarni ishga yollash, foydalanish va ishdan bo'shatishni shartnomaviy tartibga solishni bilishi va ulardan foydalana olish **ko'nikma va malakaga ega bo'lishi kerak.**

**Ma'ruza mashg'ulotlari**

Ma'ruza mashg'ulotlari katta sig'imli, multimedia qurilmalari bilan jihozlangan o'quv

auditoriyalarida olib boriladi.

### **Amaliy mashg'ulotlar**

Amaliy mashg'ulotlarda nazariy bilimlar mavzuga oid masalalar yechish orqali mustahkamlanadi. Sifat asoslari fanini chuqur o'zlashtirish uchun talaba fanning har bir bo'limini mustaqil o'rganishi va ko'p variantli masalalar yechish orqali mustahkamlashi zarur. Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor – o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar o'tilgan ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar yechish orqali yanada boyitadilar, berilgan mavzulardan mustaqil ishlar bajaradilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Amaliy mashg'ulotlarini o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlarining maqsadini aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash.

### **Mustaqil ta'lim**

Talabani Inson resurslarini boshqarish fanidan chuqur bilim olishidagi mustaqil ta'lim ishining asosiy maqsadi – bo'lajak mutaxassislarni dunyoqarashini, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bo'yicha salohiyatini oshirish, ular ongida milliy g'oya asoslarini shakllantirish; kafedra jamoasi rahbarligi va uzluksiz nazorati ostida talabada muayyan o'quv vazifasi va topshiriqlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishdir.

Uy vazifalarini bajarish, qo'shimcha darslik va boshqa o'quv adabiyotlarini mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni axborot resurs markazlaridan izlash, internet tarmoqlaridan foydalanib fanga oid rus, ingliz va boshqa chet tillarida chop etilgan adabiyotlarni elektron nusxalarini to'plash, shular asosida mavzuga oid taqdimotlar tayyorlash va o'tkazish; salohiyatli professor-o'qituvchilar rahbarligida laboratoriya ishlarini vertual stendlarini yaratish; ilmiy-ijodiy to'garaklar doirasida ilmiy-ijodiy izlanishlarni olib borish yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruza tezislarni tayyorlash.

Talabani fanni mustaqil tarzda qanday o'zlashtirganligi joriy, oraliq va yakuniy baholashlarda o'z aksini topadi. Shu sababli baholash tizimida mustaqil ishlarga alohida baho ajratilmaydi, ular JB, OB va YaB baholari tarkibiga kiritilgan.

<b>№</b>	<b>Fan mavzulari</b>	<b>Ma'ruza soatlar hajmi</b>	<b>Amaliy mashg'ulot soatlar hajmi</b>	<b>Mustaqil ta'lim soatlari</b>
1	Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida inson resurlari va ishga yollash tizimi	2	4	10
2	Inson resurlarini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati	2	4	10
3	Inson resurlarini boshqarish va ishlab chiqarishning o'zaro aloqadorligi	2	4	10
4	Xususiy korxonada personal mehnatini tashkil etish	2	4	10
5	Mehnat jamoasi shartnomalari va kelishuvlari	2	4	10
6	Inson resurlarini boshqarish boshqarish xizmatida ish yuritish	2	4	10

7	Inson resurlarini boshqarishda axborot texnologiyalari	2	4	10
8	Inson resurlarini boshqarishni rejalashtirishning maqsad va vazifalari	2	4	10
9	Yangi xodimlarni xizmat vazifasiga moslashtirish	4	8	14
10	Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida personalni tanlash va ishga yollash tizimi	4	8	14
	<b>Jami</b>	<b>24</b>	<b>48</b>	<b>108</b>

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar., Inson taraqqiyoti. Darslik. –T..Fan va texnologiya, 2014 y. 234 b.
2. Abduraxmanov Q.X., SHoyusupova N.T. Mexnat iqtisodiyoti: ijtimoiy-mehnat munosabatlari. Darslik. –T., 2011 y. 691 b.
3. Qosimova D. S., Nazarova G.G‘., Salixova N.M., Ismailova N.S. Inson resruslarini boshqarish. Darslik. –T., TDIU, 2011 y. 213 b.

#### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

1. Malenkov YU.A. Strategicheskiy menedjment. Uchebnik. M.. Prospekt, 2009. 224 s.
2. Abduraxmonov Q.X., Xolmo‘minov SH.R., Zokirova N.Q. Personalni boshqarish. Darslik. – T.. O‘qituvchi, 2008. -655 b.

#### **Axborot manbalari**

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz). – O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlar milliy bazasi
3. [www.minecono my.uz](http://www.minecono.my.uz) (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)